

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL

AVGUST 8-SON, II-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ФИЛИАЛ В г. ТАШКЕНТЕ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, avgust.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA SANOATLASHUVNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	9
Erkayev Akrom Normuxammadovich	
ALIGNING NATIONAL AND INTERNATIONAL UNIVERSITY RANKING INDICATORS: A CROSSWALK METHODOLOGY.....	16
Mamajonova Mukhlisakhon Muzaffar kizi	
O'ZBEKISTONDA ENERGETIKA TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH VA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	28
Bobobekov Ergash Abdumalikovich	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQUARUVCHI KORXONALARDA INNOVATSION BOSHQARUVNI SHAKLLANTIRISH METODOLOGIYASINI RIVOJLANTIRISH	34
Fayzullayev Jonibek Mambetsaliy o'g'li	
SANOAT KORXONASINING ATROF-MUHIT VA AHOLI SOG'LIQLIGIGA TA'SIRINI BAHOLASH.....	40
Imomnazarov Farrux Saibjabbor o'g'li	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA CHAKANA BANK XIZMATLARI RIVOJLANISHINING ZAMONAVIY HOLATI VA TAHLILI	44
Abdiraxmonov Farxod Arabboyevich	
MACHINE LEARNING-ASSISTED PREDICTION OF FIRE-RETARDANT AND PRESERVATIVE PERFORMANCE OF CHEMICALLY MODIFIED WOOD: AN ECO-FRIENDLY APPROACH.....	52
Usmanova Maftunakhon Abror qizi	
TEMIR YO'L AVTOMATIKA VA TELEMEXANIKA MAYDON QURILMALARINI MASOFAVIY NAZORAT QILISH ISHONCHLILIGINI UYALI ALOQA TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA OSHIRISH.....	60
Botirov Abdulaziz Temir o'g'li	
QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'IDA NOL STAVKANI QO'LLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	66
A.A. Bobomurodov	
KERAMIKA ISHLAB CHIQUARISH KORXONALARIDA MEHNAT SHAROITLARINI SANITAR-GIGIYENIK VA INTEGRAL BAHOLASH («OZIQ-OVQAT STANDART KARTON» MCHJ TARKIBIDAGI «TOSHKENT KAFEL» KORXONASI MISOLIDA)	71
S. Sulaymanov, N.A. Erdonova	
PYTHON-BASED NUMERICAL ANALYSIS OF THE LOGISTIC POPULATION GROWTH MODEL	76
Berdiyev Shohjahon, Khayitova Fayza	
O'ZBEKISTONDA NORASMIY VA YASHIRIN IQTISODIYOT HAJMIGA SOLIQ OMILINING TA'SIRI: EKONOMETRIK TAHLIL	85
Fayziyeva Nargiza Rabimovna	
ISHLAB CHIQUARISH KICHIK BIZNESINI HUDUDIY JOYLASHTIRISH OMILLARI VA IXTISOSLASHUV YO'NALISHLARINI BAHOLASH	93
Salimov Burxoniddin	
OLIY TA'LIM TASHKILOTLARIDA AKADEMIK FAOLIYATNI BOSHQARISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	98
Ixtiyorov Bekzod Zulfiqor o'g'li	
CHUQUK O'RGANISH ARXITEKTURALARI ASOSIDA O'ZBEK TILIDAGI SOXTA XABARLARNI ANIQLASH ALGORITMINI ISHLAB CHIQUISH	105
Uzoqov Lochinbek Mamurjon o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA INNOVATSION BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH	111
Almanov Ilhom Sultonovich	



TIBBIY XIZMAT KO'RSATUVCHI KORXONALAR IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH	118
O'roqov Firdavs Ortiqniyoz o'g'li	
TIBBIY XIZMAT KO'RSATUVCHI KORXONALAR IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH	118
O'roqov Firdavs Ortiqniyoz o'g'li	
EKSPORTGA YO'NALTIRILGAN ISHLAB CHIQRISHNI MAXSUS IQTISODIY ZONALARDA RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI	125
Iskandarova Dilorom Xayrullayevna	
KORXONALARDA BULUTLI HISOBLASH TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING GLOBAL VA MILLIY AMALIYOTI TAHLILI	130
Jumaev Sohib Baxodirovich	
YOSHLARNING RAQAMLI SAVODXONLIGINI IQTISODIY FAROVONLIKKA KONVERSIYA QILISHNING STRATEGIK BOSHQARUV MEKANIZMI	136
Palvonova Sevara Baxromovna	
QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI TIZIMIDA INSON KAPITALINI BOSHQARISHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI	141
Djalilova Dilbar Abdikarim qizi	
ЗЕЛЁНАЯ ЭКОНОМИКА КАК ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ РЕГИОНОВ УЗБЕКИСТАНА: ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ И НАПРАВЛЕНИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ.....	148
Mўminjonov Anvarbek Сайфитдин угли	
NOQISHLOQ XO'JALIGINING TOMORQA XO'JALIGI FAOLIYATIGA TA'SIRINI BAHOLASHDA ILMIY- USLUBIY YONDASHUVLAR	156
Nurullayev Ulug'bek	
TURIZM SOHASINI DAVLAT TOMONIDAN MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA SOLIQ IMTIYOZLARINING ROLI	161
Karimova Dilafruz Sadirdin qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA KREATIV XIZMATLAR BOZORINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLARI	166
Xamroyeva Sitara Otabekovna	
ОЦЕНКА ТЕХНИКО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ И ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ФОТОЭЛЕКТРИЧЕСКОЙ СТАНЦИИ, ИНТЕГРИРОВАННОЙ С МАГИСТРАЛЬНЫМИ ВОДОКАНАЛАМИ.	172
Юлдошев Исроил, Ботиров Бозорбек, Жураев Обид, Курбанов Юнус, Хамдамова Ирода, Атоева Мохинур	
SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMIDA KLINIK VA BOSHQARUV QARORLARINI QO'LLAB-QUVVATLOVCHI RAQAMLI PLATFORMALARNI RIVOJLANTIRISH	185
Turayeva Nafisa Odiljonovna	
BUDJET TASHKILOTLARIDA MOLIVAVIY XATO VA NOMUVOFIQLIKLARNING TARKIBIY KO'RINISHLARI HAMDA ULARNI ANIQLASH AMALIYOTI TAHLILI	190
Mulayev Farxod Alisherovich	
SANOATDA PORSHENLI KOMPRESSORLARNING TEXNIK-IQTISODIY SAMARADORLIGINI TA'MINLASHDA ASOSIY MUAMMOLAR TAHLILI	195
Abdixakimova Malika Amir qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIBBIY INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: RAQAMLI KOMPETENSIYALAR VA TA'LIM TRANSFORMATSIYASI	207
Nazarov Baxrom Mustafayevich	
O'ZBEKISTONDA BARQAROR TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	213
Qahramonova Maftuna Davronovna	



XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA MIJOZLARGA XIZMAT KO'RSATISH MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH	220
Jamalova Dilnoza Egamberdiyevna	
KO'P FAKTORLI AVTENTIFIKATSIYA VA KRIPTOGRAFIK HIMOYA MEKANIZMLARI ASOSIDA AXBOROT TIZIMLARI XAVFSIZLIGINI OSHIRISH	227
Babakulov Bekzod Mamatkulov	
AHOLIGA ALOQA VA AXBOROTLASHTIRISH XIZMAT KO'RSATISH TARMOG'INI TIZIMLI RIVOJLANTIRISHNING EMPIRIK TADQIQOTI	234
Nasrullayev Feruz	
SOLIQDAN BO'YIN TOVLASH HOLATLARINI KAMAYTIRISHDA SOLIQ TO'LOVCHILARNING SOLIQ XAVFINI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	238
Ismailov Bobir Salomovich	
ОБОСНОВАНИЕ ПАРАМЕТРОВ И РЕЖИМОВ РАБОТЫ ГИБРИДНОЙ СОЛНЕЧНО-КОТЕЛЬНОЙ СИСТЕМЫ ТЕПЛОСНАБЖЕНИЯ В КЛИМАТИЧЕСКИХ УСЛОВИЯХ САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ..	245
Файзиев Зафар, Юзбаева Шохид	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIKNI RIVOJLANTIRISH: INSTITUTSIONAL ASOSLAR, INVESTITSIYAVIY IMKONIYATLAR VA IJTIMOY-IQTISODIY SAMARADORLIK.....	250
Sh. Qurbonova	
XULQ-ATVORGА ASOSLANGAN SUG'URTA KONSEPSIYASI ORQALI SUG'URTA TARIFLARINI PERSONALLASHTIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	260
Xakimzoda Maftuna Yusuf qizi	
MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA TURIZMNING O'RNI VA AHAMIYATI	265
N.K. Muxitdinova, Raxmatova Sevinch	
YUQORI TEXNOLOGIYALI SANOAT TARMOQLARIDA QO'SHILGAN QIYMATNI OSHIRISH MASALALARI: O'ZBEKISTON VA JANUBIY KOREYA TAJRIBASI MISOLIDA	269
Ashirmetova Ozoda Farxod qizi	
KINEMATIC SIMULATION OF SPINDLE AND PRESSING-SECTOR MOTION IN AN ELLIPTICAL-DRUM VERTICAL-SPINDLE COTTON PICKER.....	277
Rajapbayev Umidjon Alisher o'g'li	
O'ZBEKISTONDA INNOVATSION MAHSULOTLARGA ICHKI TALABNI SHAKLLANTIRISH VA ILMIY ISHLANMALARNI TIJORATLASHTIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	283
Azizova Maliha Farrux qizi	
AGLOMERATSIYALAR VA YIRIK SHAHARLAR ATROFIDAGI HUDUDLARNI KOMPLEKS RIVOJLANTIRISHNING SHAHARSOZLIK MODEL I	290
Azamiddin Quldashev	
ZAMONAVIY SHAHARLAR EKOLOGIK INFRATUZILMASINING XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA BARQAROR RIVOJLANISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	295
Jo'rayev Muxriddin, Olimova Mohinur, Tugalov Bobur	
BYUDJET YO'QOTISHLARINING JARAYONLI LOKALIZATSIYASI: DAVLAT XARIDLARI TRANSAKSION SIKLINING XARITASI (PROCESS MAPPING).....	301
Jasur Nurmatov	
QUYOSH ENERGIYASI ASOSIDAGI ISSIQXONA MIKROIQLIMINI TA'MINLASH QURILMASINING PARAMETRLARI VA ISH REJIMLARINI OPTIMALLASHTIRISH.....	307
Qulboyev Zohid Xo'jamuradovich	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA SANOATLASHUV DARAJASINING ZAMONAVIY HOLATI VA TARKIBIY O'ZGARISHLARI	312
Erkayev Akrom Normuxammadovich	

O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA SANOATLASHUV DARAJASINING ZAMONAVIY HOLATI VA TARKIBIY O'ZGARISHLARI



Erkayev Akrom Normuxammadovich

Toshkent davlat istisodiyot universiteti (DSc) mustaqil izlanuvchisi

ORCID: 0009-0001-2638-7958

Email: erkayevakrom27@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston iqtisodiyotida sanoatlashuv jarayonining zamonaviy holati, sanoat ishlab chiqarishining o'sish tendensiyalari va uning tarkibiy o'zgarishlari tahlil qilingan. Tadqiqotda sanoatlashuvning iqtisodiy mazmuni, uning milliy iqtisodiy o'sish, mehnat unumdorligi, qo'shilgan qiymat yaratish, investitsion faollik va iqtisodiyotning texnologik modernizatsiyasidagi o'rni nazariy jihatdan asoslangan. O'zbekiston sanoatining 2025-yildagi rivojlanish ko'rsatkichlari hamda 2026-yilning birinchi yarim yilligidagi dinamikasi statistik ma'lumotlar asosida baholangan. Tahlil natijasida mamlakat sanoatida qayta ishlash sanoatining ustun mavqega ega bo'layotgani, tog'-kon sanoatining nisbiy ulushi esa pasayayotgani aniqlangan. Shu bilan birga, sanoatlashuv jarayonida hududiy nomutanosibliklar, yuqori qo'shilgan qiymatli ishlab chiqarishlarning yetarlicha rivojlanmagani, texnologik yangilanish va eksport tarkibini diversifikatsiya qilish zarurati mavjudligi asoslab berilgan. Maqolada O'zbekistonning sanoatlashuv darajasini yanada oshirish uchun yuqori texnologiyali ishlab chiqarish, mahalliy lashtirish, innovatsion faoliyat, inson kapitali va hududiy sanoat siyosatini o'zaro uyg'unlashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: sanoatlashuv, industrializatsiya, sanoat siyosati, tarkibiy o'zgarishlar, qayta ishlash sanoati, qo'shilgan qiymat, mehnat unumdorligi, investitsiya, texnologik modernizatsiya, diversifikatsiya, hududiy sanoatlashuv.

Аннотация: В данной статье анализируется текущее состояние процесса индустриализации в экономике Узбекистана, тенденции роста промышленного производства и его структурные изменения. Исследование основано на теоретическом обосновании экономического содержания индустриализации, ее роли в национальном экономическом росте, производительности труда, создании добавленной стоимости, инвестиционной активности и технологической модернизации экономики. На основе статистических данных оцениваются показатели развития промышленности Узбекистана в 2025 году и ее динамика в первом полугодии 2026 года. Анализ показал, что перерабатывающая промышленность занимает доминирующее положение в промышленности страны, в то время как относительная доля горнодобывающей промышленности снижается. Одновременно обосновывается наличие территориальных дисбалансов в процессе индустриализации, недостаточное развитие высокотехнологичной продукции, необходимость технологических инноваций и диверсификации экспортной структуры. В статье разработаны научно-практические предложения по гармонизации высокотехнологичного производства, локализации, инновационной деятельности, человеческого капитала и региональной промышленной политики для дальнейшего повышения уровня индустриализации Узбекистана.

Ключевые слова: индустриализация, промышленная политика, структурные изменения, перерабатывающая промышленность, добавленная стоимость, производительность труда, инвестиции, технологическая модернизация, диверсификация, региональная индустриализация.

Abstract: This article analyzes the current state of the industrialization process in the economy of Uzbekistan, the growth trends of industrial production and its structural changes. The study is based on a theoretical basis on the economic content of industrialization, its role in national economic growth, labor productivity, added value creation, investment activity and technological modernization of the economy. The development indicators of Uzbekistan's industry in 2025 and its dynamics in the first half of 2026 are assessed based on statistical data. The analysis revealed that the processing industry is gaining a dominant position in the country's industry, while the relative share of the mining industry is decreasing. At the same time, the existence of territorial imbalances in the industrialization process, insufficient development of high-value-added production, the need for technological innovation and diversification of the export structure are substantiated. The article develops scientific and practical proposals for harmonizing high-tech production, localization, innovative activities, human capital and regional industrial policy to further increase the level of industrialization of Uzbekistan.

Keywords: industrialization, industrialization, industrial policy, structural changes, processing industry, added value, labor productivity, investment, technological modernization, diversification, regional industrialization.



KIRISH

Milliy iqtisodiyotning barqaror va uzoq muddatli iqtisodiy o'sishini ta'minlashda sanoatlashuv jarayoni alohida ahamiyat kasb etadi. Sanoatlashuv faqat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining ko'payishi bilan chegaralanmay, iqtisodiyotning tarkibiy tuzilmasini takomillashtirish, ishlab chiqarish omillarining yuqori unumdor tarmoqlarga ko'chishi, texnologik yangilanish, mehnat unumdorligining oshishi va yuqori qo'shilgan qiymat yaratish jarayonlarini ham qamrab oladi.

Klassik iqtisodiy nazariyada iqtisodiy taraqqiyot ishlab chiqarish resurslarining nisbatan past unumdorlikka ega faoliyat turlaridan yuqori unumdorlikka ega tarmoqlarga qayta taqsimlanishi bilan bog'langan. A. Fisherning uch sektorli modeli, K. Klarkning tarkibiy transformatsiya haqidagi qarashlari va keyinchalik rivojlangan strukturaviy transformatsiya nazariyalari sanoatlashuvni iqtisodiy rivojlanishning muhim bosqichi sifatida izohlaydi.

O'zbekiston sharoitida sanoatlashuvning zamonaviy bosqichi iqtisodiyotni xomashyo yo'nalishidan qayta ishlash, texnologik murakkab va yuqori qo'shilgan qiymatli ishlab chiqarishlarga bosqichma-bosqich yo'naltirish bilan tavsiflanadi. Bu jarayonda investitsiyalarni jalb qilish, ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish, yangi texnologiyalarni o'zlashtirish, mahallilashtirish va eksport salohiyatini kengaytirish muhim omillar hisoblanadi.

O'zbekiston Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilda mamlakatda 1,1 kvadrillion so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilgan bo'lib, bu 2024-yilga nisbatan 6,8 foiz ko'pdir. 2026-yil 1-yanvar holatiga mamlakatda 59,8 mingta sanoat korxonasi faoliyat yuritgan.

Shu jihatdan O'zbekiston iqtisodiyotida sanoatlashuvning hozirgi darajasini baholash, uning tarkibiy o'zgarishlarini aniqlash va mavjud muammolarni bartaraf etishning iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy masala hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sanoatlashuv va tarkibiy transformatsiya masalalari iqtisodiy rivojlanish nazariyasida uzoq yillardan buyon muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. A. Fisher (1935) iqtisodiy taraqqiyot jarayonida iqtisodiyotning turli sektorlar o'rtasidagi o'zgarishlarini yoritib, ishlab chiqarish faoliyatining tarkibiy rivojlanishi masalasiga e'tibor qaratgan. Uning yondashuvi keyinchalik iqtisodiyotni tarmoqlar bo'yicha transformatsiyasini o'rganishga asos bo'lgan. C. Clark (1940) esa iqtisodiy taraqqiyot sharoitida qishloq xo'jaligi, sanoat va xizmatlar sektorlarining rivojlanish xususiyatlarini tizimli ravishda tadqiq etgan. Mazkur tadqiqotlar sanoatlashuvni iqtisodiy rivojlanishning tarkibiy o'zgarishlari bilan bog'liq holda o'rganish uchun nazariy asos yaratgan.

S. Kuznets (1966) iqtisodiy o'sishning sur'ati, tarkibi va mamlakatlar bo'yicha tarqalishini tahlil qilib, iqtisodiy rivojlanish jarayonida tarmoqlar tarkibining o'zgarishi muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatgan. Muallifning tadqiqotlari iqtisodiy o'sishni faqat ishlab chiqarish hajmining ortishi bilan emas, balki iqtisodiyot tarkibidagi uzoq muddatli o'zgarishlar bilan birgalikda baholash zarurligini asoslashga xizmat qiladi. H. B. Chenery va M. Syrquin (1975) esa rivojlanish jarayonida mamlakatlarning iqtisodiy va tarkibiy ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlarni empirik jihatdan tadqiq etib, iqtisodiy rivojlanishning turli bosqichlarida ishlab chiqarish va tarmoqlar tarkibining o'zgarish qonuniyatlarini aniqlagan.

Sanoatlashuvning iqtisodiy o'sishga ta'siri A. Szirmai (2012) tadqiqotida rivojlanayotgan mamlakatlar misolida kengroq tahlil qilingan. Muallif 1950–2005-yillar davomida sanoatlashuvning iqtisodiy o'sishdagi rolini o'rganib, sanoat sektorini rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy o'sishning muhim manbalaridan biri sifatida ko'rib chiqadi. Ushbu yondashuv sanoat ishlab chiqarishining kengayishi bilan bir qatorda uning iqtisodiy o'sishga qo'shayotgan hissasini baholash zarurligini ko'rsatadi.

D. Rodrik (2013) ishlab chiqarish sanoatining iqtisodiy rivojlanishdagi o'rnini tahlil qilib, ishlab chiqarish sektorida unumdorlikning o'sishi va iqtisodiy konvergentsiya o'rtasidagi bog'liqlikka e'tibor qaratgan. Mazkur tadqiqot sanoatlashuv jarayonini baholashda ishlab chiqarish hajmi bilan bir qatorda mehnat unumdorligi va ishlab chiqarish samaradorligi kabi ko'rsatkichlarning ahamiyatini ko'rsatadi. Bu yondashuv sanoatlashuvning sifat jihatlarini baholash uchun muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

M. P. Timmer va G. J. de Vries (2009) Osiyo va Lotin Amerikasi mamlakatlarida tarkibiy o'zgarishlar hamda iqtisodiy o'sish tezlashuvini tadqiq etib, tarmoqlar o'rtasidagi resurslar qayta taqsimoti iqtisodiy o'sish jarayonida muhim rol o'ynashini ko'rsatgan. Ularning tadqiqotida tarkibiy transformatsiya va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik mamlakatlarning rivojlanish tajribasi asosida yoritilgan.

Umuman olganda, yuqoridagi tadqiqotlar sanoatlashuvni iqtisodiy o'sish, tarkibiy transformatsiya, ishlab chiqarish unumdorligi va resurslarning tarmoqlararo qayta taqsimlanishi bilan uzviy bog'liq jarayon sifatida talqin qilish imkonini beradi. Mazkur ilmiy yondashuvlar O'zbekiston iqtisodiyotida sanoatlashuv darajasini baholashda sanoat ishlab chiqarishining hajmi bilan bir qatorda, uning tarmoq tarkibi, qo'shilgan qiymat



yaratish salohiyati, mehnat unumdorligi va tarkibiy o'zgarishlarini kompleks tahlil qilish zarurligini asoslashga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

O'zbekiston iqtisodiyotida sanoatlashuv darajasining zamonaviy holatini baholash, sanoat ishlab chiqarishidagi tarkibiy o'zgarishlarni aniqlash hamda sanoatlashuvni yanada chuqurlashtirishning ustuvor yo'nalishlarini asoslashdan iborat.

Mazkur maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- sanoatlashuvning nazariy-iqtisodiy mazmunini ochib berish;
- O'zbekiston sanoatining zamonaviy rivojlanish dinamikasini baholash;
- sanoat ishlab chiqarishining tarmoq tarkibidagi o'zgarishlarni tahlil qilish;
- qayta ishlash sanoatining sanoatlashuvdagi rolini aniqlash;
- hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarishidagi tafovutlarni baholash;
- sanoatlashuvning mavjud muammolarini aniqlash;
- O'zbekiston iqtisodiyotida sanoatlashuv darajasini oshirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqish.

Maqolada tizimli yondashuv, tarkibiy tahlil, qiyosiy tahlil, statistik guruhlash, dinamik qatorlarni tahlil qilish va mantiqiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

Empirik baza sifatida O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining 2025-yil yakunlari hamda 2026-yilning dastlabki statistik ma'lumotlaridan foydalanildi. Sanoatlashuv holatini baholashda sanoat ishlab chiqarishi hajmi, sanoat ishlab chiqarishining tarmoq tarkibi, sanoat yalpi qo'shilgan qiymati, sanoat ishlab chiqarishining o'sish sur'atlari va hududiy ko'rsatkichlar asosiy indikatorlar sifatida tanlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Sanoatlashuvni tor ma'noda iqtisodiyotda sanoat ishlab chiqarishining miqdoriy kengayishi sifatida izohlash mumkin. Biroq zamonaviy iqtisodiy nazariyada ushbu tushuncha ancha keng mazmunga ega bo'lib, iqtisodiyotning texnologik, institutsional va tarkibiy transformatsiyasini ifodalaydi.

Sanoatlashuvning muhim belgilariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- sanoat ishlab chiqarishining mutlaq va nisbiy hajmining oshishi;
- qayta ishlash sanoatining rivojlanishi;
- yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishning kengayishi;
- texnologik modernizatsiya va innovatsiyalarning ishlab chiqarishga joriy etilishi;
- mehnat unumdorligining oshishi;
- sanoat eksportining diversifikatsiyalashuvi;
- investitsiyalarning ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirishga yo'naltirilishi;
- sanoat va xizmatlar sektorining texnologik jihatdan o'zaro integratsiyalashuvi.

Shu sababli sanoatlashuv darajasini faqat sanoatning YAIMdagi ulushi orqali baholash yetarli emas. Sanoatlashuvning sifat jihatlarini ham hisobga oluvchi kompleks yondashuv talab etiladi. Sanoatlashuv darajasi – milliy iqtisodiyotda sanoatning iqtisodiy o'sish, qo'shilgan qiymat yaratish, bandlik, eksport, texnologik yangilanish va hududiy rivojlanishga qo'shayotgan hissasini ifodalovchi kompleks iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimidir. Mazkur yondashuv sanoatlashuvni oddiy ishlab chiqarish hajmining o'sishidan farqlash imkonini beradi. Chunki sanoat mahsuloti hajmining oshishi hali iqtisodiyotning texnologik jihatdan rivojlanganini anglatmaydi. Agar ishlab chiqarish asosan xomashyo yoki past qayta ishlash darajasidagi mahsulotlarga asoslangan bo'lsa, bunday o'sishning uzoq muddatli iqtisodiy samarasi cheklangan bo'lishi mumkin.

O'zbekiston iqtisodiyotida so'nggi yillarda sanoat ishlab chiqarishi hajmining barqaror o'sishi kuzatilmoqda. 2025-yilda mamlakatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1,1 kvadrillion so'mga yetgan va yillik o'sish sur'ati 6,8 foizni tashkil qilgan. Sanoat ishlab chiqarishining aholi jon boshiga hajmi 29,1 mln so'mga yetgan. Mazkur ko'rsatkichlar O'zbekistonda sanoat bazasining kengayayotganini ko'rsatadi. Biroq sanoatlashuvni baholashda ishlab chiqarish hajmidan tashqari uning ichki tarkibiga ham e'tibor qaratish zarur.

2025-yil yakunlariga ko'ra, sanoat ishlab chiqarishining asosiy qismini qayta ishlash sanoati tashkil etgan. Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilda qayta ishlash sanoatida 947,2 trln so'mlik mahsulot ishlab chiqarilgan bo'lib, uning sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 86 foizni tashkil etgan. Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash ulushi 7 foiz, elektr, gaz, bug' va havoni konditsiyalash sohasining ulushi 6,4 foiz, suv ta'minoti, kanalizatsiya va chiqindilarni yig'ish-utilizatsiya qilish sohasining ulushi esa 0,6 foiz bo'lgan. Biroq qayta ishlash sanoatining yuqori ulushi avtomatik ravishda yuqori texnologiyali sanoatlashuvni anglatmaydi. Mazkur sektor ichida ishlab chiqarishning texnologik murakkabligi, innovatsion mahsulotlar ulushi, mehnat



unumdorligi va eksport tarkibini alohida tahlil qilish lozim.

Sanoatlashuv jarayonining muhim natijalaridan biri iqtisodiyotda yalpi qo'shilgan qiymatning ko'payishidir. Milliy statistika qo'mitasining SIAT ma'lumotlariga ko'ra, joriy narxlarda ishlab chiqarish sanoatining yalpi qo'shilgan qiymati 2010-yildagi 9 142,2 mlrd so'mdan 2025-yilda 384 204,1 mlrd so'mgacha oshgan. Tog'-kon sanoatining yalpi qo'shilgan qiymati esa shu davrda 3 243,5 mlrd so'mdan 49 139,6 mlrd so'mgacha ko'paygan. Bu ma'lumotlar O'zbekiston sanoatining iqtisodiyotdagi nominal qo'shilgan qiymat yaratish salohiyati sezilarli darajada oshganini ko'rsatadi. Shuningdek, doimiy narxlardagi ma'lumotlar ham ishlab chiqarish sanoatida real o'sish mavjudligini tasdiqlaydi. 2025-yilda ishlab chiqarish sanoatining yalpi qo'shilgan qiymati 329 959,5 mlrd so'mga yetgan.

Ishlab chiqarish sanoatining yillik o'sish sur'ati 2025-yilda 107,7 foizni tashkil etgan. Tog'-kon sanoatida ushbu ko'rsatkich 103,5 foiz, elektr-gaz-bug' ta'minoti sohasida esa 103,5 foiz bo'lgan.

Mazkur tendensiya sanoatlashuvning yangi bosqichida ishlab chiqarish sanoati iqtisodiy o'sishning asosiy drayverlaridan biriga aylanayotganini ko'rsatadi.

O'zbekiston sanoatlashuvining muhim xususiyatlaridan biri uning hududlar bo'yicha har xil taqsimlanganidir. 2025-yilda sanoat ishlab chiqarishining eng katta hajmi Toshkent shahrida 207,3 trln so'm, Navoiy viloyatida 195,2 trln so'm va Toshkent viloyatida 170,3 trln so'mni tashkil etgan. Andijon viloyatida sanoat ishlab chiqarishi 107,9 trln so'mga yetgan. Hududiy tafovutlar sanoat ishlab chiqarishining infratuzilma, tabiiy resurslar, investitsiyalar, logistika, mehnat resurslari va bozor infratuzilmasi bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Toshkent shahri va Toshkent viloyatining yuqori ko'rsatkichlari yirik bozor, transport-logistika infratuzilmasi, investitsiya muhiti va mehnat resurslarining konsentratsiyasi bilan izohlanishi mumkin. Navoiy viloyatidagi yuqori sanoat ishlab chiqarishi esa, avvalo, tog'-kon-metallurgiya va yirik sanoat majmualarining mavjudligi bilan bog'liq.

Shu sababli hududiy sanoatlashuv siyosatining asosiy maqsadi barcha hududlarda sanoat hajmini mexanik ravishda bir xil darajaga olib chiqish emas, balki hududlarning mavjud iqtisodiy resurslari va raqobat ustunliklari asosida sanoat klasterlarini shakllantirishdan iborat bo'lishi maqsadga muvofiq.

O'zbekiston iqtisodiyotida yuz berayotgan tarkibiy o'zgarishlarni quyidagi asosiy yo'nalishlarda guruhlash mumkin: 2025-yilda qayta ishlash sanoatining umumiy sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 86 foizga yetgani iqtisodiyotning xomashyo yetkazib berishga asoslangan modeldan qayta ishlashga yo'naltirilgan modelga siljishini ko'rsatadi.

Sanoat ishlab chiqarishining faqat tog'-kon tarmoqlariga bog'liqligini kamaytirish va ishlab chiqarish sanoatini kengaytirish iqtisodiy barqarorlikni oshirishga xizmat qiladi. 2026-yilning yanvar-mart oylarida O'zbekiston YAIM tarkibida xizmatlar sektori 56,2 foiz, sanoat 29,2 foiz, qishloq xo'jaligi, o'rmon xo'jaligi va baliqchilik 8,4 foiz, qurilish esa 6,2 foiz ulushga ega bo'lgan.

Bu holat O'zbekiston iqtisodiyoti an'anaviy sanoatlashtirishdan tashqari, sanoat va xizmatlar integratsiyasiga asoslangan postindustrial transformatsiya elementlarini ham shakllantirayotganini ko'rsatadi. 2026-yil yanvar-iyun oylarida asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 2025-yilning mos davriga nisbatan 117,5 foizni tashkil etgan. Shu davrda sanoat ishlab chiqarishi 108,0 foizga o'sgan.

Investitsiyalarning yuqori o'sish sur'ati ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, texnologik yangilanish va yangi sanoat korxonalarini tashkil etish uchun moliyaviy asos yaratayotganini ko'rsatadi.

O'zbekiston iqtisodiyotida sanoatlashuv jarayoni ijobiy dinamikaga ega bo'lib, uning sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilishi uchun bir qator muhim yo'nalishlarni rivojlantirish talab qilinadi.

Birinchi yo'nalish — yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish ulushini yetarli darajada kengaytirish. Sanoat ishlab chiqarishining hajmi ortib borayotganligi sababli, kelgusida ishlab chiqarishning texnologik murakkabligini oshirish muhim.

Ikkinchi yo'nalish — hududiy sanoatlashuv imkoniyatlarini kengaytirish. Ayrim hududlarda sanoat ishlab chiqarishi yuqori darajada konsentratsiyalangan bo'lsa, boshqa hududlarda sanoat salohiyatidan foydalanish imkoniyatlarini yanada rivojlantirish muhim.

Uchinchi yo'nalish — texnologik salohiyatni rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish. Zamonaviy sanoatlashuv yangi korxonalar tashkil etish bilan bir qatorda, mahalliy ilmiy-texnik salohiyatni ishlab chiqarish bilan integratsiya qilishni ham talab qiladi.

To'rtinchi yo'nalish — mehnat unumdorligi va inson kapitalini rivojlantirish. Yuqori texnologiyali sanoat uchun malakali muhandislar, texnologlar, dasturchilar va ishlab chiqarish menejerlariga bo'lgan talab ortib boradi.

Beshinchi yo'nalish — sanoat ishlab chiqarishining ekologik samaradorligini oshirish. Zamonaviy sanoatlashuv resurslarni ko'p talab qiluvchi modeldan energiya va resurs tejamkor, past uglerodli hamda aylanma iqtisodiyot tamoyillariga asoslangan modelga o'tishni qo'llab-quvvatlaydi.

Tahlillar asosida O'zbekiston sanoatlashuvining yangi bosqichini shakllantirish uchun quyidagi yo'nalishlarni taklif etish mumkin.

Sanoat siyosatida ishlab chiqarish hajmidan ko'ra, yaratilayotgan qo'shilgan qiymat, mehnat unumdorligi



va texnologik murakkablik asosiy mezon sifatida qaralishi lozim. Mahalliy xomashyoni eksport qilishdan ko'ra, uni bir necha bosqichda qayta ishlab, tayyor va yuqori qiymatli mahsulotga aylantirish sanoatlashuv samaradorligini oshiradi.

Hududlarning resurs va ishlab chiqarish imkoniyatlaridan kelib chiqib, avtomobilsozlik, elektrotexnika, to'qimachilik, oziq-ovqat, kimyo, farmatsevtika, metallurgiya va boshqa yo'nalishlarda hududiy sanoat klasterlarini rivojlantirish maqsadga muvofiq.

Ilmiy-tadqiqot institutlari, oliy ta'lim muassasalari va sanoat korxonalari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish orqali ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish mexanizmlarini rivojlantirish zarur. Sanoatning texnologik murakkabligi oshgani sari professional va texnik ta'lim tizimining ishlab chiqarish ehtiyojlariga moslashuvi muhim ahamiyat kasb etadi. Energiya samaradorligi, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, chiqindilarni qayta ishlash va resurs tejankor texnologiyalarni sanoat siyosatining tarkibiy qismiga aylantirish lozim. Hududlar uchun yagona sanoatlashuv modeli o'rniga ularning iqtisodiy salohiyatiga mos differensial sanoat siyosatini qo'llash samaraliroq hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston iqtisodiyotida sanoatlashuv jarayoni so'nggi yillarda miqdoriy va tarkibiy jihatdan sezilarli rivojlanish bosqichiga kirdi. 2025-yilda sanoat ishlab chiqarishining 1,1 kvadrillion so'mga yetishi va uning 6,8 foizga o'sishi sanoat salohiyatining kengayotganini ko'rsatadi.

Sanoat tarkibida qayta ishlash sanoatining 86 foizlik ulushga ega bo'lishi O'zbekiston sanoatlashuvining tarkibiy jihatdan o'zgarayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, sanoat ishlab chiqarishining hududiy konsentratsiyasi, texnologik modernizatsiya, yuqori qo'shilgan qiymat yaratish, malakali kadrlar bilan ta'minlash va ekologik samaradorlik masalalari sanoat siyosatining ustuvor yo'nalishlari bo'lib qolmoqda.

2026-yilning birinchi yarim yilligida sanoat ishlab chiqarishining 8,0 foizga o'sishi ham sanoat sektorining iqtisodiy faollikdagi rolini saqlab qolayotganini ko'rsatadi.

Shunday qilib, O'zbekiston uchun zamonaviy sanoatlashuv modeli xomashyo → chuqur qayta ishlash → yuqori qo'shilgan qiymat → innovatsion mahsulot → eksport diversifikatsiyasi zanjiri asosida shakllanishi maqsadga muvofiq. Bunday model milliy iqtisodiyotning tarkibiy barqarorligini oshirish, mehnat unumdorligini ko'paytirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va mamlakatning xalqaro qiymat zanjirlaridagi mavqeini mustahkamlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Fisher, A. G. B. (1935). The clash of progress and security. Macmillan.
2. Clark, C. (1940). The conditions of economic progress. Macmillan.
3. Kuznets, S. (1966). Modern economic growth: Rate, structure, and spread. Yale University Press.
4. Chenery, H. B., & Syrquin, M. (1975). Patterns of development, 1950–1970. Oxford University Press.
5. Szirmai, A. (2012). Industrialisation as an engine of growth in developing countries, 1950–2005. *Structural Change and Economic Dynamics*, 23(4), 406–420.
6. Rodrik, D. (2013). Unconditional convergence in manufacturing. *Quarterly Journal of Economics*, 128(1), 165–204.
7. Timmer, M. P., & de Vries, G. J. (2009). Structural change and growth accelerations in Asia and Latin America. *Structural Change and Economic Dynamics*, 20(2), 94–113.
8. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. (2026). O'zbekiston sanoatida 2025-yil yakunlari bo'yicha statistik ma'lumotlar.
9. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. (b.d.). Gross value added of industries (at current prices, annual). SIAT statistik ma'lumotlar bazasi.
10. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. (b.d.). Growth rates of gross value added of industries (annual). SIAT statistik ma'lumotlar bazasi.
11. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. (b.d.). Gross value added of industries (at constant prices, annual). SIAT statistik ma'lumotlar bazasi.
12. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. (2025). Industrial production in the Republic of Uzbekistan [Press-reliz].
13. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. (2026, 21-yanvar). O'zbekiston sanoati hajmi 2025-yilda 1,1 kvadrillion so'mga yetdi.
14. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. (2026, 27-yanvar). 2025-yil hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarishi.
15. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. (2026). O'zbekistonning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari, 2026-yil yanvar–iyun.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100